

SOLIQ ORGANLARINING COLIQ TO'LOVCHILAR TOMONIDAN QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLAB CHIQARISHDA AMALGA OSHIRILADIGAN VAZIFALAR TAHLILI

Raxmanov Laziz Erkabaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotation. Mazkur maqolada respublikamizda so'nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiyligi ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Annotation: This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish: Soliq to‘lashdan bo‘yin tov lashning turli xil ko‘rinishlari natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarni minimallashtirish sxemalarini qo‘llash, soliq to‘lovchilar tomonidan olingan foydani samarasiz sarflash va qayta investitsiyalash natijasida yo‘qotilayotgan soliqli tushumlar ham-yiliga 250-300 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bu esa, jahon mamlakatlarida soliq siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida soliqdan qochishni kamaytirishning ma’muriy va iqtisodiy usullaridan kengroq foydalanishga undamoqda.

O‘zbekistonda keyingi-yillarda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, u orqali yuzaga keluvchi soliqdan qochish holatlari hamda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash holatlarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish, nazorat tadbirlarini o‘tkazish yo‘nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar sharxi.

J.Shumpeter (2007) ikki turga bo‘linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo‘lgan texnik nosozlik bilan bog‘liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining yetishmasligi bilan bog‘liq xavf.

A.K.Pokrovskiy (2011) ko‘rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o‘zaro ta’sir qilish, xavf haqida mavjud ma’lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog‘liq xarajatlar (xarajatlar), o‘ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o‘ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo‘lmaydigan qismi ekanligi ta’kidlanib, qaysiki ular rag‘batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini ma’lum qilgan .

Aronov, Kashinlar (2004) o‘zining tadqiqtida esa, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatları, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarini amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov “Korxonalarini rivojlantirishda soliqlarning roli to‘g‘risida”gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini rag‘batlantirish hamda ularning debtor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar bergen.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to‘lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to‘lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko‘ra, soliq to‘lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo‘lmacligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbazarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to‘sinq bo‘layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida ma‘lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo‘nalishlari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda soliq organlarining coliq to‘lovchilar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarishda huquqni suiiste‘mol qilishning oldini olish hamda qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar natijasida assossiz soliq nafi olishga qaratilgan huquqbazarliklarini tezkorlik bilan bartaraf etishda soliq xizmati organlarining mas‘ul tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan aniq vazifalarni belgilash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur vazifalarni o‘z vaqtida ijobjiy yechish bo‘yicha qo‘ydagilarni tavsiya etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xususan, soliq qonunchiligini suiiste‘mol qilgan holda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi shaxs tomonidan xarid qilingan (hisobvaraq-fakturalar va import qilingan tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha) tovarlar MXIK kodlari nomutanosib bo‘lgan soliq to‘lovchilarning qo‘shilgan qiymat solig‘i guvohnomasi 1 ish kuni chida bekor qilish belgilangan. (Asos Vazirlar Mahkamasining 595-sod qaror, 31-bandı.).

Tovarlar nomutanosibligi tufayli sotib olingan, lekin sotilmay turgan tovarlarni sanoqdan o‘tkazish uchun zudlik bilan bir ish kuni davomida Sayyor soliq tekshiruviga buyruq chiqarib, tovar moddiy boyliklar qoldig‘ini sanoqdan o‘tkazish, soliq to‘lovchining ruyxatdan o‘tgan manzilda haqiqitda mavjud yoki mavjud emasligini

qayd qilish, (mavjud bo‘lмаган тақдирда бельгилangan тартибда ишларни амалга ошириш ва бу жаройонлarda камида 2 нафар холи гувоҳлар исхирокини та’минлаш);

- солиқ то‘ловчining товарларни саqlash учун омборлари ва ijara шартномаларining mavjudligi (mavjud bo‘lмаган тақдирда буни tasdiqlovchi materiallarni to‘plash);

- sotilgan tovarlarning kirim hujjatlari mavjudligi, kirim qilingan tovarlarning haqiqatda omborda mavjud yoki mavjud emasligi;

- mol-mulki va ishchi xodimlarining mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritish va tegishli dallilarni to‘plash lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, manzilida mavjud bo‘lмаган korxonalar, tekshirishga ruxsat bermagan, tekshirishga hujjatar taqdim qilmagan korxonalar bo‘yicha hisob raqamini to‘xtatish bo‘yicha qaror qabul qilish va hisob raqamida operatsiyalarni to‘xtatish kerak.

1.Tovar moddiy boyliklar kamomad summasi, kirim qilinmagan tovarlar sotilishi summasi va ularga hisoblanadigan soliq summalarini bo‘yicha jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, bir ish kuni davomida sayyor tekshiruv hujjatlari jinoyat ishi qo‘zg‘atish учун huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish. Hisoblangan qo‘sishimcha soliq va moliyaviy jarimalar bo‘yicha qaror qabul qilinib, korxonaning shaxsiy hisob varaqasiga kiritish .

2.Kirim qilinmagan tovarlarni sotib olgan kontragentlari bo‘yicha, hisobga olgan qo‘silgan qiymat solig‘i summalariga tuzatish kiritilishini ta’minlash учун kontragentlar nomi, olgan tovarlari nomi, soni summasi va hisobga olgan QQS summasi haqida jinoyat ishiga qo‘shib chora ko‘rish uchun huquqni muhofaza qilish organiga yuborish.

3. Katta miqdorda tovarlarni jismoniy shaxs, ta’sischi jismoniy shaxs nomidan kirim qilingan tovaralaning kelib chiqishi ma’lum bo‘lмаган, kassa cheki, hisob varaq fakturasi mavjud bo‘lмаганлари bo‘yicha jismoniy shaxslar daromad solig‘i hisoblash,hisoblangan soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorinig 300 baravaridan oshgan taqdirda jinoyat ishi qo‘zg‘atish учун huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish.

4.Kirim qilinmagan tovarlarni sotib olgan kontragentlari bo‘yicha, huquqni muhofaza qilish organlari xulosasi asosida hisobga olgan qo‘silgan qiymat solig‘i summalariga tuzatish kiritilishi bo‘yicha kontragentlar ro‘yxatdan o‘tgan davlat soliq inspeksiylariga xatlar jo‘natish.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti “Yangi texnologiyalar ilmiy axborot markazi” DUK bilan birgalikda soliq qonunchiligini suiiste’mol qilgan holda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi shaxs tomonidan xarid qilingan (hisobvaraq-fakturalar va import qilingan tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha) tovarlar

MXIK kodlaridan kelib chiqib, nomutanosib bo‘lgan tovarlar uchun hisobvaraq-faktura rasmiylashtirishga cheklov kiritish tartibini zudlik bilan joriy qilish zarurdir.

Shuningdek, sotuvchi tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) xaridorning asossiz soliq nafi olishini ko‘zlab amalga oshirilayotgan bitimlar (operatsiyalar) xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq kelmasligi yoki soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan manzilda mavjud bo‘lmasligi holatlari aniqlangan paytidayoq QQS guvohnomasini to‘xtatib qo‘yilishni zudlik bilan amalga oshirilishini nazorat qilish hamda hududiy soliq organlari qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar natijasida vujudga kelgan munosabatlarda dastlab bitim sharti bo‘yicha tovarlar (xismatlar) yetkazib beruvchining faoliyatini ko‘zdan kechirish, tovarsiz operatsiyalar orqali shubxali faoliyat bilan shug‘ullanayotganligi bo‘yicha qo‘srimcha dalillarni (faktlar) aniqlash maqsadida Soliq kodeksining 139-moddasiga asosan 1 ish kuni ichida sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda, sayyor soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan sayyor soliq tekshiruvi chog‘ida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag‘lari harakatining, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa axborotlarning tahlili o‘tkazilib, (tekshiruv jarayoniga imkon qadar soliq to‘lovchi rahbari yoki qonuniy vakili ishtirokini taminlash zarur hisoblanadi) quyidagilarga aniqlik kiritilishi shart:

- soliq to‘lovchining ruyxatdan o‘tgan manzilda haqiqitda mavjud yoki mavjud emasligi, (mavjud bo‘lmasligi taqdirda belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish va bu jarayonlarda kamida 2 nafar holis guvohlar ishtirokini ta’minalash);
- soliq to‘lovchining tovarlarni saqlash uchun omborlari va ijara shartnomalarining mavjudligi (mavjud bo‘lmasligi taqdirda buni tasdiqlovchi materiallarni to‘plash);
- tovarlar kirim qiligan bo‘lsa, ushbu tovarlarining haqiqatda mavjud yoki mavjud emasligi;
- mol-mulki va ishchi xodimlarining mavjud yoki mavjud emasligiga aniqlik kiritish va tegishli dallilarni to‘plash.

Tekshiruv natijasida aniqlangan quyidagi holatlar sotuvchi va xaridor o‘rtasida imzolangan bitimlar qalbaki yoki ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilganligiga oid dalillar deb baholanadi:

- bitim majburiyatini bajarish uchun tovarlar (xizmatlar) yetkazib beruvchi korxonaning ko‘rsatilgan manzilda joylashmaganligi, omborning va tovarlarni saqlash uchun yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun muayyan ob‘ektning mavjud emasligi;
- kirim qilingan tovar-moddiy boyliklarning mavjud emasligi;
- soliq nafi oluvchi xaridor uchun rasmiylashtirilgan hisobvaraq-fakturalar bo‘yicha realizatsiya qilingan deb ko‘rsatilgan tovarlarning kirim qilinmaganligi;

- tashkilotda tegishli iqtisodiy faoliyat natijalariga erishish uchun shartsharoitlar mavjud emasligi (ishchi xodimlar, asosiy vositalar, ishlab chiqarish fondlari, ustav kapitali ma'lumotlari, transport vositalari, majburiy ruxsatnomalar, litsenziyalar va boshqalar);

Coliq nazoratining keyingi bosqichlarida yetkazib beruvchining kontragentlarida (xaridorda) sayyor soliq tekshiruvi, kameral soliq tekshiruvi yoki soliq auditini o'tkazish zarurati tug'ilsa o'tkaziladi. Bunda, sotuvchiga nisbatan o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvida aniqlangan dalillardan kelib chiqib uning kontragentini tekshirish jarayonida inobatga olinadi.

Soliq organlari tomonidan hududiy soliq organlari soliq to'lovchi taraflar o'rtasida qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida QQSni hisobga olish holati vujudga kelganligi borasidagi dalillarga asoslanib tovarlarni (xizmatlarni) xarid qiluvchi soliq to'lovchining hisobga olish huquqini bekor qilish maqsadida shaxsiy hisobvaraqa tuzatishni amalga oshirish bo'yicha qo'mitasiga hulosa kirlitsin hamda soliq to'lovchiga bu haqida 1 ish kunida habarnoma yuborish;

Byudjet daromadlarini prognozlashtirish departamenti hududiy soliq organining hulosasi olingan kunning o'zida soliq to'lovchining shaxsiy-hisobvarag'iga tuzatish kiritish;

Soliqqa oid huquqbazarliklar bilan ishslash boshqarmasi Soliq kodeksining 27-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi xatboshidan kelib chiqib, sotuvchida o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha jinoyat alomatlarini aniqlash maqsadida surishtiruv harakatlarini olib borish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlariga habar berilishini nazoratga olish kerak.

Shubhali korxonalardan xarid qilingan tovar (xizmat) lar bo'yicha hisobga olingan QQS summalariga o'zgartirish kiritish va qayta aniqlashtirilgan hisobotlar taqdim etish yuzasidan soliq to'lovchi (kontragent)ga 1-ilovaga muvofiq 1 kun muddatda "Xabarnoma" yuboriladi.

Yuborilgan xabarnomalarga javoban 5 kun muddatda qayta hisobot taqdim etmagan soliq to'lovchilar (kontragentlar)ga nisbatan hisobga olingan QQS summasini bekor qilish choralarini ko'rildi.

Bunda, soliq summasi soliq to'lovchi shaxsiy kartochkasining tegishli soliq (1,94,102) kodlariga bir martalik yozuvlar kiritish moduli orqali kiritiladi. Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida modulning izohlar panelida "Soliq kodeksining 14,15 va 266-moddalariga asosan" yozuvi qoldiriladi.

Hisoblangan soliq summalarini bo'yicha e'tiroz bildirgan yoki javob xati taqdim etgan korxonalardan quyidagi hujjatlar talab qilib olinadi:

- Tuzilgan shartnomalar
- Hisobvaraqa-fakturalar
- To'lov topshiriqnomalari

- Tovarlarni olib kelish uchun rasmiylashtirilgan yuk xatlari
- Ishonchnomalar va boshqa xujjatlar
- O‘z navbatida xarid qilingan tovarlar qaysi maqsadlarga ishlatilganligi (realizatsiya qilingan, o‘z ehtiyojlari uchun ishlatilganligi yoki omborda mavjudligi) to‘g‘risida ma’lumot.

Talab qilib olingan hujjatlar boshqarmaning xodimlari tomonidan batafsil o‘rganib chiqiladi. Zarur xollarda esa holat bo‘yicha kameral va sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkaziladi.

O‘rganish va tekshirish natijalari bo‘yicha DSB boshlig‘i (yoki boshliq o‘rinbosari) xulosa qabul qilinadi va nusxasi Davlat soliq qo‘mitasida tuzilgan maxsus “Ishchi guruh”ga yuboriladi.

Taqdim etilgan xulosa asosida “Ishchi guruh” tomonidan 3 kun muddatda shaxsiy kartochkaga hisoblash uchun kiritilgan summalarini kamaytirish yoki o‘zgarishsiz qoldirish bo‘yicha qaror qabul qilinadi va hududiy soliq organiga ijro uchun yuboriladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan hisobga olingan summalarini bekor qilinganligi bo‘yicha yo‘llangan murojaatlari (e’tirozlar) davlat soliq boshqarmalarning Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatichiligi bo‘limlari tomonidan belgilangan tartibda o‘rganib chiqiladi va soliq qonunchiligi normalariga asosan javob yo‘llaydi.

Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar bilan jismoniy shaxslar o‘rtasida predmeti ishlar bajarishdan iborat bo‘lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to‘lov larga ishlatilgan materiallar narxi ham qo‘shilgan bo‘lsa, ushbu JShni tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligini va tegishli soliqlar hisoblanishini tekshirish.

Adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Нормурзаев У. Ҳукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(5), 325–330.
https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35

Нормурзаев У. (2021). анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в Узбекистане. Экономика и образование, (6), 82–86. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>

Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер. М.: Изд-во Эксмо, 2007. 864 с.

Покровский А.К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, 2011. 160 с.

Kristina F.B. "The Informal Economy" march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития SE-105 25 Стокгольма Швеция.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

Жалонкина И, (2012) "Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации". Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Андреева В.А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14) 2017. стр.136-140.

Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) 2016. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.narod.ru/zhurnal/>

Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.